

T A S D I Q L A Y M A N

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Yoshlar masalalari va MMIB prorektori

B.Sangirov



09 " noyabr "

TANLOV BO‘YICHA TEXNIK HUJJATLAR

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Amaliy san’at va dizayn” fakulteti binosining o‘quv auditoriyalari uchun kerak bo‘lgan moddiy texnikalarni xarid qilish uchun “Open budget” loyihasi doirasida texnik jihozlar sotib olish bo‘yicha eng yaxshi takliflarni tanlashni e’lon qiladi.

Xizmat nomi: Texnik jihozlar va buyumlar sotib olish;

Tanlov o‘tkazish shakli: Elektron shaklda;

Shartnomaning boshlang‘ich bahosi: 40 000 000 (qirq million) so‘m

Tanlov xujjatlarini qabul qiladigan hamda tanlov o‘kaziladigan manzil: etender.uzex.uz;

Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga amal qilgan holda tanlovda ishtirok etishlari mumkin:

- shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy resurslarining mavjudligi;
- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi;
- o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-tamoyillarining mavjud emasligi;

Tanlov ishtirokchilariga tanlash bo‘yicha xarid qilish qoidalariga doir tushuntirishlar yuzasidan ishtirokchilar bilan aloqada bo‘ladigan shaxs:

Bosh hisobchi – Umirzakov Shuhrat,
tel: (91) 965-52-14;

Takliflarni taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana:

Maxsus axborot portaliga lot joylashtirilgan kundan boshlab 7 (yetti) kun davomida;

Buyurtmachining yuridik manzili:

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Mironshoh ko‘chasi, 123;

Tanlov hujjatlarini rasmiylashtirish talablari:

- tanlov ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli;

- tanlov hujjatlarida tuzatishlarga (matn, so‘z va raqamlarni bo‘yash) yo‘l qo‘yilmaydi. Agarda hujjatlarda tuzatishlar aniqlansa ushbu tanlov hujjati komissiya tomonidan chetlatiladi;
- tanlash ishtirokchisi taqdim etayotgan ma’lumot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riliği uchun javobgar bo‘ladi;

Tanlovga taqdim etiladigan hujjatlar:

- tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza – **10 ball**;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumotnomaga (kartoteka 2) – **10 ball**;
- tashkilotning ro‘yhatga olinganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi (tashkilot rahbari tomonidan muxr va imzo bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim) – **10 ball**;
- yetkazib beruvchi tashkilotning omborida talab etilayotgan tovarlarning mavjudligi (rasmi, batafsil tavsifi, tovar markasi to‘g‘risida ma’lumot) – **10 ball**;
- yetkazib beruvchi tashkilot yetkazib beriladigan tovarlar uchun kamida bir yil muddat mobaynida kafolat berishi hamda ushbu muddat mobaynida texnik nosozliklarni o‘z hisobidan bartaraf etilishi lozim – **10 ball**;
- yetkazib beruvchi tashkilotning hisobida tovarlarni yetkazib berish uchun yetarlicha mablag‘i bo‘lishi lozim (bank tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnomaga) – **10 ball**;
- tanlov ishtirokchilari buyurtmachiga tovarlarning rend va markalarini taqdim qilganligi to‘g‘risida ma’lumot (buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan tijorat taklifi) – **20 ball**;
- tanlov ishtirokchilari o‘ziga nisbatan bankrotlik tartib-tamoyillari joriy etilmagan bo‘lishi hamda insofsiz ijrochilarning yagona reestrida qayd etilmagan bo‘lishi shart – **20 ball**;

Komissiya a’zolari:

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor



X.Qaytarov

Bosh hisobchi



Sh.Umirzakov

Bosh muhandis



A.Musinov

Dekan



Sh.Jumaniyazov

Komissiya kotibi:

Ishlar boshqarmasi boshlig‘i



E.Mulladjanov